

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILINI O'QITISH METODIKASIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK VA METODIK ASOSLARI

U.Abdurasulova,

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitish metodikasida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishning didaktik va metodik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar, metodik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarning o'rnini haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, o'zbek adabiy tili, didaktik asoslar, metodik yondashuv, kompetensiya, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, AKT, ta'lim sifati

DIDACTIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES IN THE METHODOLOGY OF TEACHING THE MODERN UZBEK LITERARY LANGUAGE

Abstract: This article scientifically analyzes the didactic and methodological bases (foundations) of the development of independent study activities of students in the modern methodology of teaching the Uzbek literary language. The pedagogical factors, methodological approaches and the role of modern technologies that affect the effective organization of independent study (learning) are also discussed in the article.

Keywords: independent study, learning, Uzbek literary language, didactic bases (foundations), methodological approach, competence, interactive methods, pedagogical technology, ICT (Information and communication technologies), quality of education

ДИДАКТИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье научно анализируются дидактические и методические основы развития самостоятельной образовательной деятельности студентов в методике преподавания современного узбекского литературного языка. Рассматриваются педагогические факторы, влияющие на эффективную организацию самостоятельной работы, методические подходы и роль современных технологий в этом процессе.

Ключевые слова: самостоятельное образование, узбекский литературный язык, дидактические основы, методический подход, компетенция, интерактивные методы, педагогическая технология, ИКТ, качество образования.

KIRISH

Bugungi globallashtirish va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limning o'рни va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy ta'lim jarayoni talabalardan nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishni, balki mustaqil ravishda bilim izlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi. Shu bois mustaqil ta'lim oliy ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'lim talabalarning o'z ustida ishlashini, bilim doirasini kengaytirishini hamda tanlangan yo'nalish bo'yicha chuqurroq bilimga ega bo'lishini ta'minlaydi. U talabalarda mas'uliyat, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'lim – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham mustaqil ta'lim olish masalalari xususida quyidagicha ma'lumot keltiriladi: "Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi"[1].

Mustaqil ta'lim – ta'limni tashkil etish shakllaridan biri bo'lib, bunda talabalar o'z oldilariga u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yib, faoliyatni rejalashtiradi va uni amalga oshiradi hamda o'z-o'zini baholaydi.

Mustaqil ta'lim – o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limni tashkil etish shaklidir. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabalarning mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va didaktikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo turli ilmiy yondashuvlar doirasida tadqiq etilgan bo'lib, ularda mustaqil ta'limning mazmuni, shakllari hamda uni tashkil etish mexanizmlari turlicha talqin qilinadi. Ilgari olib borilgan tadqiqotlar asosida, masalan, V.I.Andriyanova, P.T.Magzumov, U.N.Nishonaliyev, N.Sayidahmedov va boshqa olimlarning ishlarida mustaqil ta'limni tashkil etishning turli usullari va uning pedagogik samaradorligi batafsil o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar asosida mustaqil ta'lim jarayoni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy tajribalar va konkret misollar orqali ham ko'rsatildi[3]. A.Bozorova va G.Sayfullayeva[4]larning tadqiqotlariga ko'ra, kredit-modul tizimida ikkita asosiy masalaga alohida e'tibor qaratiladi, ya'ni talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash hamda talabalar bilimni reyting asosida baholash. Shuningdek, talabalarga o'z o'quv rejasini individual tarzda tuzish imkoniyatini yaratish, ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olish ulushini oshirish, ta'lim dasturlarining moslashuvchanligini ta'minlash va mehnat bozoridagi talabdan kelib chiqib ularni o'zgartirish imkonini berish[5]. N.A.Muslimov va O.A.Qo'ysinovlar[6]ning fikricha, mustaqil ta'lim olish maqsadini belgilash va uning o'quvchilarda mustaqil bilim olish, mustaqil ishlash, ijodkorlik, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash hamda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali umumiy kasbiy rivojlanishni ta'minlashga asos bo'ladi, shu bilan birga, u bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish, tushunchalar, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga qaratilgan o'quv jarayonining subyektiv, maqsadga muvofiq, muntazam va mustaqil faoliyatini tashkil etishdir. Professorlar Z.Sh.Mirzayeva hamda V.B.Fayzievlar[7]ning izlanishlariga ko'ra, mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida sinfdan tashqarida bajariladi. o'quvchilarning o'quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslik yoki umumkasbiy o'quv fanlaridan chuqur bilim va malaka-

larga ega bo'lishda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o'ynaydi.

Ma'lumki, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qiladi:

– talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

– bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

– talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

– ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

– talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

– ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni quyidagilarga asoslanadi:

talabaning mustaqil ta'lim yuklamasi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

mustaqil ta'limi auditoriya va auditoriyadan tashqarida (auditoriya soatini inobatga olmagan holda) bevosita o'qituvchi rahbarligida talabaning fan bo'yicha mavzularni mustaqil o'qib-o'zlashtirishi, tushuncha olishi va tahlil qilishi va amalga oshiradigan o'quv ishlari mazmunini bildiradi.

mustaqil ish turi va shakli muayyan ta'lim yo'nalishi hamda fanlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar talabaning bilim olishi uchun tushunarli va qisqa holda ishlab chiqilgan bo'lishi va talaba bu haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

talabalarning mustaqil ta'lim olish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv seminarlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq[8].

Didaktik shart-sharoitlar – bu ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi omillar tizimidir. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Tushuncha	Ta'rif	Turlari / elementlari	Misollar
O'qitish metodlari	O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari	Og'zaki (ma'ruza, suhbat), ko'rgazmali, amaliy, muammoli ta'lim, interfaol metodlar	"Aqliy hujum", debat, savol-javob, laboratoriya ishlari
O'qitish vositalari	Ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi moddiy va texnik resurslar	An'anaviy (darslik, doska), texnik (kompyuter, proyektor), vizual (rasm, jadval), audio-video vositalar	PowerPoint taqdimoti, video dars, plakatlar, test materiallari
O'qitish shakllari	Ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilishi va o'tkazilish ko'rinishlari	Individual, guruhli, frontal, sinfdan tashqari, masofaviy	Seminar, amaliy mashg'ulot, onlayn dars (Zoom), to'garaklar
Pedagogik muhit	Ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik, moddiy va ma'naviy sharoitlar majmui	Ijtimoiy muhit, psixologik muhit, moddiy-texnik muhit	Do'stona sinf muhiti, motivatsiya, zamonaviy jihozlangan xona
O'quv jarayonini tashkil etish prinsiplari	Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish uchun asos	Ilmiylik, tizimlilik, izchillik, ongli va faol o'rganish,	Darsni oddiydan murakkabga qarab o'tkazish, ta'lim oluvchini faol jalb

Tushuncha	Ta'rif	Turlari / elementlari	Misollar
	bo'ladigan didaktik qoidalar	ko'rgazmalilik, individuallashtirish	qilish, vizual materiallardan foydalanish

Mazkur shart-sharoitlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi ta'lim samaradorligini belgilaydi. Ayniqsa, mustaqil ta'lim jarayonida didaktik shart-sharoitlar to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi.


NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitish jarayonida mustaqil ta'lim talabaning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda talaba:

- nutq madaniyatini shakllantiradi;
- grammatik bilimlarni amaliyotga tatbiq etadi;
- mustaqil matn yaratish ko'nikmasiga ega bo'ladi;
- til birliklarini kontekstda to'g'ri qo'llashni o'rganadi.

Bundan tashqari, o'zbek adabiy tilini o'qitish jarayoni o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, bunda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Mustaqil ta'lim quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilishi mumkin:

TIL O'RGANISH FAOLIYATLARI



Talabalar mustaqil ishlash jarayonida tilni “o‘rganish”dan “qo‘llash” bosqichiga o‘tadi. Bu esa ta‘lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mustaqil topshiriqlar aniq va tushunarli maqsadga ega bo‘lishi kerak. Talaba nima uchun ushbu topshiriqni bajarayotganini anglab yetishi muhim. Bu uning motivatsiyasini oshiradi va natijadorlikni ta‘minlaydi. Bundan tashqari, o‘quv materiallar talabaning bilim darajasiga mos, ilmiy jihatdan to‘g‘ri, zamonaviy va dolzarb bo‘lishi zarur. Bunda badiiy adabiyotlar, publitsistik matnlar va ilmiy maqolalar bilan ishlash tilni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar mustaqil ta‘limni yanada samarali qiladi. Jumladan, multimedia vositalari, onlayn platformalar, elektron kutubxonalar hamda mobil ilovalar. Bu vositalar talabaning qiziqishini oshiradi va o‘rganish jarayonini yengillashtiradi. Yuqorida yatib o‘tilganidek, har bir talabaning bilim darajasi va qobiliyati turlicha bo‘lib, beriladigan topshiriqlar ham oddiydan murakkabga qarab, individual imkoniyatlarni hisobga olgan holda berilishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘qitish jarayonida talabalarning samarali mustaqil ta‘lim faoliyatini tashkil etish murakkab va ko‘p omilli pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning muvaffaqiyati nafaqat o‘quv materialining mazmuniga, balki uni tashkil etishda qo‘llaniladigan didaktik tamoyillar va metodik yondashuvlarning uyg‘unligiga ham bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta‘limni samarali tashkil etish uchun avvalo talabaning shaxsiy faolligi, motivatsiyasi va refleksiv fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Bunday sharoitlarda talaba nafaqat tayyor bilimni o‘zlashtiradi, balki uni tahlil qilish, solishtirish va amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Shuningdek, o‘zbek adabiy tilini o‘qitish metodikasida mustaqil ta‘limni rivojlantirishning metodik asoslari — matn tahlili, insho va referat yozish, lug‘at bilan ishlash, grammatik mashqlar hamda nutqiy vaziyatlar asosidagi topshiriqlar tizimi talabaning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu faoliyat turlari o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilganda ta‘lim samaradorligi yanada oshadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ham mustaqil ta'limning samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu esa talabaning o'z-o'zini boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Umuman olganda, mustaqil ta'lim faoliyatini didaktik va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitish jarayonining sifatini oshirishga, talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada esa raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, o'z bilimini doimiy ravishda rivojlantira oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil, 23-sentabr.
2. Dusyorova L.Sh. "Mustaqil ta'lim" tushunchasi mazmuni va namoyon bo'lish shakllari // Ta'lim texnologiyalari, 2025-yil. –№3. – B.42.
3. Xolmatova Z.A. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish -pedagogik muammo sifatida // Qo'qon universiteti xabarnomasi / <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1050>.
4. Bozorova A., Sayfullayeva G. Kredit-modul ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish. Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi. – 2023. – No1(7). – B. 24-28.
5. Yuldashev Sh. Mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy didaktik prinsiplar // Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025-yil. –№10. – B. 530-535.
6. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. –T.: TDPU, 2006. – 46 b.
7. Mirzayeva Z.Sh., Fayziyev V.B. O'quvchilarda mustaqil ta'limini tashkil etish yo'llari. Academic research in educational sciences. – 2021. – No2(5). – B. 362-366.
8. Sheraliyev S.S. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilish // <https://cyberleninka.ru/article/n/>.